XALQ DEPUTATLARI ELLIKQAL'A TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 27-dekabr VII-4-027-13-194-K/24 Ellikqal'a tumani

Ellikqal'a tumanining 2025-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunining 6 va 24-moddalari, Budjet kodeksining 27 va 99-moddalari, "2025-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida"gi 2024-yil 24-dekabrdagi O'RQ-1011-son Qonuniga va Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesining 2024-yil 26-dekabr kungi 26/II-sonli qaroriga muvofiq hamda tuman hokimi birinchi o'rinbosarining 2024-yil 20-noyabrdagi 02-321-sonli taqdimnomasini inobatga olib, xalq deputatlari Ellikqal'a tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O'zbekiston Respublikasining "2025-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida"gi Qonuni hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesining 2024-yil 26-dekabr kungi 26/II-sonli qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Mazkur qarorga muvofiq, Ellikqal'a tumani mahalliy budjetining 2025-yilgi daromadlari 110 mlrd. 623 mln. 179 ming so'm va xarajatlari 110 mlrd. 623 mln. 179 ming so'mga rejalashtirilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.Tuman mahalliy budjetining shaxsiy g'azna hisobvarag'ida turishi lozim bo'lgan budjet mablag'larining yo'l qo'yiladigan eng kam miqdori (aylanma kassa mablag'lari) 814 000 ming so'm etib belgilangansin.

3. Tuman mahalliy budjeti daromadlarining 2025-yil uchun asosiy prognoz ko'rsatkichlari 1-ilovaga muvofiq hamda 2025-yilda tuman mahalliy budjetidan moliyalashtiriladigan budjet tashkilotlariga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari 2-ilovaga muvofiq, shuningdek Tuman mahalliy budjetiga umumdavlat soliqlari va boshqa soliqsiz tushumlardan ajratmalar me'yorlari 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tuman mahalliy budjeti zaxira jamg'armasi hajmi 2025-yil uchun 1 mlrd. 757 mln. 652 ming so'm miqdorida belgilansin. Bunda, zaxira jamg'armasi mablag'larini amaldagi budjet qonunchiligiga muvofiq, budjet tizimi budjetlari shakllantirilayotganda oldindan nazarda tutib bo'lmaydigan xarajatlarni, shuningdek

ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik yuzaga kelgan vaziyatlarda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo‘naltirilishi ta’minlansin.

5. Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutloq miqdorda 1 gektar yer uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar 4-ilovaga, jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallagan yerlardan tashqari) mutloq miqdorda 1 kv.m uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar 5-ilovaga, belgilangan limit doirasida yer usti va yer osti manbalaridan olinadigan suv resurslari uchun soliq stavkalari mutlaq miqdorda bir kub metr uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlari 6-ilovaga, yer qa’ridan foydalanganlik uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar 7-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

6. Tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari B.Alimov, tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i M.Turabayev, tuman soliq inspeksiyasi boshlig‘i N.Abayev bilan birgalikda 2025-yil mahalliy budjeti uchun belgilangan ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

7. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari B.K.Alimov va tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i M.M.Turabayevlarga:

shaffoflikni ta’minlash maqsadida, mahalliy budjetdan mablag‘ bilan ta’minlanadigan budjet mablag‘larini taqsimlovchilar har chorak yakuni bilan keyingi chorak birinchi oyining 25-sanasidan kechiktirmay tegishli rasmiy veb-saytlariga o‘z tasarrufidagi budjet tashkilotlari kesimida mablag‘lar taqsimotini, davriy moliyaviy hisobotlarini, kapital qo‘yilmalar hisobidan amalga oshirilayotgan loyihalarning ijrosini, o‘tkazilgan tanlovlar (tenderlar) savdolari va amalga oshirilgan davlat xaridlari hamda boshqa tegishli ma’lumotlarning joylashtirilib borilishi yuzasidan majburiyatlar yuklatilganligi ko‘rsatib o‘tilsin;

davlat moliyaviy nazorati organlari tomonidan moliya yili uchun ish rejalarini moliya yilining birinchi oyida hamda nazorat tadbirlari natijalariga ko‘ra aniqlangan moliyaviy qonunbuzilishlar va ijobiy natijalar bo‘yicha ma’lumotlarni har chorakdan keyingi oyning 25-sanasidan kechiktirmay o‘z rasmiy veb-saytlariga joylashtirib borilishi;

tuman mahalliy budjetining qo‘shimcha manbalari hisobidan xarid qilingan tovarlar va xizmatlar, qurilish, rekonstruktsiya qilish va ta’mirlash ishlari olib borilayotgan obyektlar ro‘yxati, shuningdek qurilish-ta’mirlash ishlarining moliyalashtirilishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar har chorak yakunlariga ko‘ra, keyingi chorak birinchi oyining 10-sanasiga qadar tuman hokimligi tomonidan o‘z rasmiy veb-saytlariga joylashtirsin.

qonunda belgilangan ayrim soliqlar va to‘lovlar stavkalari, soliq solish tartiblari va boshqa ma’lumotlarni ommaviy axborot vositalarida yoritilishini ta’minlasin.

ko‘rsatib o‘tilgan xarajat turlariga to‘g‘ri mablag‘ ajratilganligi va taqsimlanganligiga mablag‘ taqsimlovchilarning javobgarligi oshirilsin.

tuman mahalliy budjetining qo‘shimcha manbalarining 30 foizidan kam bo‘lmagan (ortiq bo‘lishi mumkin) miqdorlarini jamoatchilik fikri asosida belgilangan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltirishni, veb-saytlarga ularning natijalarini joylashtirishni ta’minlasin.

8.Tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i M.M.Turabayev va tuman Soliq inspeksiyasi boshlig‘i N.Abayev budjet daromadlari va xarajatlari ko‘rsatkichlarining bajarilishini ta’minlash, soliq bazasini kengaytirish hamda tumanning iqtisodiy salohiyatini oshirish yuzasidan zarur chora-tadbirlar ko‘rish, budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanishi ustidan qat’iy nazoratni o‘rnatish choralarini ko‘rsin.

9. Tuman mahalliy budjetidan moliyalashtiriladigan budjet tashkilotlariga ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanish, xususan ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon, kommunal xizmatlar va davlat dasturlari uchun belgilangan xarajatlarni birinchi navbatda to‘liq rejalashtirilishi va o‘z vaqtida to‘lanishi hamda davriy jamlanma moliyaviy hisobotlarni to‘g‘ri shakllantirilishi va o‘z vaqtida taqdim etilishini ta’minlasin.

10. Mazkur qaror bajarilishini ta’minlash vazifasi tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari B.Alimov hamda qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari Ellikqal’a tuman Kengashining Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi zimmalariga yuklatilsin.

11. Tuman hokimligining axborot xizmati rahbari T.Nurimovaga mazkur qarorni tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirish va ommaviy axborot vositalarida e’lon qilish vazifasi yuklansin.

12. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi

NIYAZIMBETOV
VALIJAN
BATIRBAYEVICH

Xalq deputatlari Ellikqal’a tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-027-13-194-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Ellikqal’a tumani mahalliy budjeti daromadlarining 2025-yil uchun asosiy prognoz ko‘rsatkichlari

ming so‘mda

t/r	Daromad turlari	Jami
	JAMI	**110 623 179**
1	Aylanmadan olinadigan soliq	5 838 142
2	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	52 747 184
3	Tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan qat'iy belgalangan daromad solig‘i	1 231 100
4	Yuridik shaxslarning mol-mulk solig‘i	3 155 479
5	Jismoniy shaxslarning mol-mulk solig‘i	8 013 722
6	Yuridik shaxslarning yer solig‘i	6 995 238
7	Jismoniy shaxslarning yer solig‘i	29 344 616
8	Qurilish materiallari bo'yicha yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq	262 750
9	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq elektrastantsiyalardan tashqari	2 915 475
10	Davlat mulkini ijarasidan tushumlar	119473
	Jami daromadlar	**110 623 179**

Xalq deputatlari Ellikqal’a tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-027-13-194-K/24 -son qaroriga
2-ilova

Ellikqal’a tumani mahalliy budjetining 2025-yilda tuman mahalliy budjetidan moliyalashtiriladigan budjet tashkilotlariga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari to‘g‘risida

MA’LUMOT

T/R	Ko‘rsatkichlar	Miqdori
	Xarajatlar miqdori, Jami	**110 623 179**
1	**Tuman maktabgacha va maktab ta‘limi bo‘limi**	**30 091 637**
	shu jumladan:	
1.1	Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarini saqlash xarajatlari	13 736 838
1.2	Umumta’lim maktablarining saqlash xarajatlari	5 206 742
1.3	“Barkamol avlod” bolalar maktabi saqlash xarajatlari	1 746 412
1.4	Maktabgacha va maktab ta’lim bo‘limi saqlash xarajatlari	5 007 994
1.5	Mening maktabim *(Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi)*	4 393 651
2	**Bolalar musiqa va san’at maktablari**	**5 042 598**
2.1	18 -sonli bolalar musiqa va san’at maktabi	3 039 130
2.2	23 -sonli bolalar musiqa va san’at maktabi	2 003 468
3	**Tuman madaniyat bo‘limi**	**1 644 475**
	shu jumladan:	
	madaniyat bo‘limi saqlash xarajatlari	1 514 236
	madaniyat bo‘limi boshqaruv apparati xarajatlari	130 239
4	**Tuman sport maktablari**	**6 648 917**
5.1	Ellikqal’a tumani 1-sonli sport maktabi	4 213 861

5.2	Ellikqal’a tumani 2-sonli sport maktabi	2 435 056
5	Tuman Axborot-kutubxona markazi	493 146
6	**Tuman Obodonlashtirish boshqarmasi**	**16 142 634**
	shu jumladan:	
6.1	Obodonlashtirish boshqarmasi saqlash xarajatlari	11 945 286
6.2	Ichki xo‘jalik avtomobil yo‘llarni ta’mirlash xarajatlari	4 197 348
7	Tuman Fermer xo‘jaliklari markazlashgan buxgalteriyasi	617 681
8	“Suv yetkazib berish xizmati” Davlat muassasasi	2 570 203
9	Tuman Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo‘limi	1 184 905
10	Tuman Hayvonlar kasalliklari tashxisi va oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi davlat markazi	681 750
11	**Tuman hokimligi**	**33 491 782**
	shu jumladan:	
11.1	Tuman hokimligi saqlash xarajatlari	2 919 703
11.2	Xalq qabulxonasini saqlash xarajatlari	199 629
11.3	Ijtimoiy ko‘nikma markazlari xarajatlari	118 099
11.4	Zaxira jamg‘armasi xarajatlari	1 757 652
11.5	Hokim yordamchilari xarajatlari	4 475 308
11.6	Oila va xotin qizlar bo‘limi xarajatlari	1 827 797
11.7	Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi	22 182 771
11.8	Ozodlikdan maxrum etish jazosini o‘tab bo‘lgan fuqarolarga “dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi”	10 823
12	Yoshlar ishlari agentligi Ellikqal’a tuman bo‘limi	4 773 208
13	Tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi	2 165 025
14	Tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi	1 608 979
15	Xalq deputatlari Ellikqal’a tumani Kengashi kotibiyati	266 239
16	“Mahalla budjeti” jamg‘armasi mablag‘lari	3 200 000

Xalq deputatlari Ellikqal’a tumani Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-027-13-194-K/24 -son qaroriga
3-ilova

Ellikqal’a tumani mahalliy budjetiga umumdavlat soliqlari va boshqa soliqsiz tushumlardan ajratmalar meyorlari

foiz xisobida

T/R	Budjetlar o‘rtasida taqsimlanishi	Foyda solig‘i	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i			Yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to‘lanadigan daromad solig‘i (3 111 800, 3 111 104, doramad kodlari)	Yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to‘lanadigan qat’iy belgilangan soliq	Aylanmadan olinadigan soliq	Alkogol mahsulotlari (aroq)	Aksiz solig‘i Benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiyasidan soliq (AZS)		Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq		Yuridik shaxslar yer solig‘i	
			yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar						Qoraqalpog‘iston Respublikasi budjeti	tuman (shaharlar) budjeti	yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar
				Qoraqalpog‘iston Respublikasi budjeti	tuman (shaharlar) budjeti										
	Tuman mahalli	0	0	17	83	100	100	100	0	100	0	0	100	0	100

	y budjetiga															

T/R	Budjetlar o‘rtasida taqsimlanishi	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	Yer osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq noruda	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	Davlat boji	jarimalar	yig‘imlar	Shundan	Geologik o‘rganishlar uchun yer ostidan foydalanganlik uchun yillik litsenziya to‘lovi (3 422 687)	Davlat mulkini ijaragaberishdan tushumlar	davlat ulushi mavjud bo‘lgan yuridik shaxslar sof foydasidan ajratmalar	Ko‘chma savdo obyektini auksion savdolari orqali o‘tkazilishidan olingan pul mablag‘lari		Boshqa tushumlar (3 450 603, 3 450 723, 3 450 725, 3 450 950, 3 450 951, 3 511 700, 3 511 112, 3 710 303 doramad kodlaridan boshqa)
									3 422 203 kodiga tegishli yig‘imlar				Qoraqalpog‘iston Respublikasi budjeti	tuman (shaharlar) budjeti	
	Tuman mahalliy	100	100	100	100	0	0	0	100	15	100	0	50	50	0

	budjetiga														

Xalq deputatlari Ellikqal’a tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-027-13-194-K/24 -son qaroriga
4-ilova

Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutloq miqdorda 1-gektar uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlari *(Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesining 2024-yil 26-dekabr kungi 26/II-sonli qaroriga asosan 1 gektar yer uchun 34 020,0 ming so‘m qilib belgilangan)*

ming so‘mda

№	Hududlar nomi	Koeffitsient (0,7 dan 3,0 gacha)	2025-yil uchun yer solig‘i stavkasi
1.	A.Navoiy MFY	0,8	27 216,00
2.	Abay MFY	0,8	27 216,00
3.	Ayozqal’a MFY	0,7	23 814,00
4.	Aqchako‘l OFY	0,8	27 216,00
5.	Amirobod OFY	0,8	27 216,00
6.	Bo‘ston MFY	0,8	27 216,00
7.	Guldursin OFY	0,8	27 216,00
8.	Guliston OFY	0,7	23 814,00
9.	Dumanqal’a MFY	0,8	27 216,00
10.	Do‘stlik OFY	0,8	27 216,00
11.	Jasorat MFY	0,8	27 216,00
12.	Ibn-Sino MFY	0,8	27 216,00
13.	Iqbol MFY	0,8	27 216,00
14.	Istiqlol MFY	0,8	27 216,00
15.	Iftixor MFY	0,8	27 216,00
16.	Ixlos MFY	0,8	27 216,00
17.	Qavatqal’a MFY	0,8	27 216,00
18.	Qoshqo‘ra MFY	0,8	27 216,00
19.	Qizilqum OFY	0,7	23 814,00
20.	Qilichinoq OFY	0,8	27 216,00
21.	Qirqqizobod OFY	0,8	27 216,00
22.	Kichik Guldursin MFY	0,8	27 216,00
23.	Koinot MFY	0,8	27 216,00
24.	Navbaxor MFY	0,8	27 216,00
25.	Navoiy OFY	0,8	27 216,00

26.	Oq-Oltin MFY	0,8	27 216,00
27.	Paxtachi MFY	0,8	27 216,00
28.	Sarabiy OFY	0,8	27 216,00
29.	Saxtiyon ShFY	0,8	27 216,00
30.	Toza-Bo‘g OFY	0,8	27 216,00
31.	Toshkent MFY	0,8	27 216,00
32.	Tuproqqal’a MFY	0,7	23 814,00
33.	Chuqurqoq MFY	0,7	23 814,00
34.	Cho‘pon MFY	0,8	27 216,00
35.	Sharq-Yulduzi OFY	0,7	23 814,00
36.	Ellikqal’a OFY	0,8	27 216,00
37.	Yangi O‘zbekiston MFY	0,8	27 216,00
38.	Burgutqal’a MFY	0,8	27 216,00
39.	To‘rtdevor MFY	0,8	27 216,00
40.	Barhayot MFY	0,8	27 216,00

Xalq deputatlari Ellikqal’a tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-027-13-194-K/24 -son qaroriga
5-ilova

Jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlardan tashqari) mutloq miqdorda **1 kv.metr** uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlari
(Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesining 2024-yil 26-dekabr kungi 26/II-sonli qaroriga asosan 1 kv.metr uchun 265 so‘m qilib belgilangan)

so‘mda

№	**Hududlar nomi**	**Koeffitsient (0,7 dan 3,0 gacha)**	**2025-yil uchun yer solig‘i stavkasi**
1.	A.Navoiy MFY	0,73	193,45
2.	Abay MFY	0,73	193,45
3.	Ayozqal’a MFY	0,70	185,47
4.	Aqchako‘l OFY	0,73	193,45
5.	Amirobod OFY	0,73	193,45
6.	Bo‘ston MFY	0,73	193,45
7.	Guldursin OFY	0,73	193,45
8.	Guliston OFY	0,70	185,47
9.	Dumanqal’a MFY	0,70	185,47
10.	Do‘stlik OFY	0,73	193,45
11.	Jasorat MFY	0,73	193,45
12.	Ibn-Sino MFY	0,73	193,45
13.	Iqbol MFY	0,73	193,45
14.	Istiqlol MFY	0,73	193,45
15.	Iftixor MFY	0,73	193,45
16.	Ixlos MFY	0,73	193,45
17.	Qavatqal’a MFY	0,73	193,45
18.	Qoshqo‘ra MFY	0,73	193,45
19.	Qizilqum OFY	0,70	185,47
20.	Qilichinoq OFY	0,73	193,45
21.	Qirqqizobod OFY	0,73	193,45
22.	Kichik Guldursin MFY	0,73	193,45

23.	Koinot MFY	0,73	193,45
24.	Navbaxor MFY	0,73	193,45
25.	Navoiy OFY	0,73	193,45
26.	Oq-Oltin MFY	0,73	193,45
27.	Paxtachi MFY	0,73	193,45
28.	Sarabiy OFY	0,73	193,45
29.	Saxtiyon ShFY	0,73	193,45
30.	Toza-Bo‘g OFY	0,73	193,45
31.	Toshkent MFY	0,73	193,45
32.	Tuproqqal’a MFY	0,70	185,47
33.	Chuqurqoq MFY	0,70	185,47
34.	Cho‘pon MFY	0,73	193,45
35.	Sharq-Yulduzi OFY	0,70	185,47
36.	Ellikqal’a OFY	0,73	193,45
37.	Yangi O‘zbekiston MFY	0,73	193,45
38.	Burgutqal’a MFY	0,73	193,45
39.	To‘rt-devor MFY	0,73	193,45
40.	Barhayot MFY	0,73	193,45

Xalq deputatlari Ellikqal’a tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-027-13-194-K/24 -son qaroriga
6-ilova

Belgilangan limit doirasida **yer usti va yer osti manbalaridan olinadigan suv resurslari** uchun soliq stavkalari mutlaq miqdorda bir kub metr uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlari

so‘mda

T/p	Soliq to‘lovchilar va soliq solish obyektlari	1 kub. metr uchun soliq stavkasi (so‘mda)			
		Koeffitsient (0,7 dan 1,5 gacha)	yer usti suv resurslari manbalari	Koeffitsient (0,7 dan 1,5 gacha)	yer osti suv resurslari manbalari
1	Iqtisodiyotni barcha tarmoqlari uchun	1	700	1	850
2	Sanoat korxonalari uchun	1	700	1	850
3	Alkogolsiz va alkogol mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun (pivo va vinodan tashqari)	1	38 000	1	38 000
4	Avtotransport vositalarini yuvish uchun	1	15 000	1	15 000

Izoh: Ro‘yxati O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan tasdiqlanadigan yirik soliq to‘lovchilar bundan mustasno.

Xalq deputatlari Ellikqal’a tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-027-13-194-K/24 -son qaroriga
7-ilova

Yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari quyidagi miqdorlarda belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar

T/r	Foydali qazilmalar guruhi	Koeffitsient (1,3 gacha)	Soliq solish obyektining nomi	Soliq stavkalari, foizlarda, so‘mda
1	Noruda qurilish materiallari	1,3	G‘isht-cherepitsa xom ashyosi, lyosslar va lyossimon jinslar	5, biroq 6 000 so‘m/kub.m dan kam bo‘lmagan
		1,3	qurilish qumi, qumtoshlar, qum-shag‘al aralashmasi**	6 500 so‘m/kub.m dan kam bo‘lmagan